

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
N.S.G'afurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Камалова	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarining huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMLar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

**TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI****ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ
ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕСТОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ****PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF IMPROVING THE THEORETICAL BASIS OF
USING TESTOLOGY IN THE EDUCATIONAL SYSTEM****Xalikov Faroxidin¹**¹Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholashda ko'plab omillarni hissobga olish va ijtimoiy-pedagogik muhit va shart-sharoitlarni ham hissobga olish talab etiladi. Bugungi kunda ta'limda pedagogik o'lchovlarni zamonaviylashtirish va xalqaro dasturlarni joriy etishning zarurati ortib bormoqda. Xalqaro baholash dasturlarining bosh maqsadi maktabda o'rganayotgan bilimlarini talabalar tomonidan kundalik hayotda qo'llanishi holati qanday ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье необходимо учитывать множество факторов и учитывать социально-педагогическую среду и условия при оценке учебных достижений учащихся. Сегодня возрастает необходимость модернизации педагогических мероприятий и внедрения международных программ в образовании. Основная цель международных программ оценки – предоставить обратную связь о том, как учащиеся применяют знания, полученные в школе, в повседневной жизни.

Abstract

In this article, it is necessary to take into account many factors and take into account the socio-pedagogical environment and conditions when evaluating the educational achievements of students. Today, the need to modernize pedagogical measures and introduce international programs in education is increasing. The main goal of international assessment programs is to provide feedback on how students apply the knowledge they learn at school in everyday life.

Kalit so'zlar: zamonaviy jamiyat, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, raqamli iqtisodiyot, baholash jarayoni, innovatsion va raqamli, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: современное общество, независимое образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, цифровая экономика, процесс оценки, инновационное и цифровое, рыночная экономика, Образование и обучение, научно-методическое.

Key words: modern society, independent education, modern worldview, social necessity, digital economy, evaluation process, innovative and digital, market economy, Education and training, scientific and methodical.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ta'lim va uning sifatini yaxshilashning ustvor yo'nalishlari belgilab olingan. O'qitishning obyektiv natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarida o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularning fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quvchi va talabalar bilimni baholashda og'zaki, yozma, amaliy ko'nikma, muammoli masalalar bilan birgalikda test sinovlaridan ham foydalanib kelinmoqda. Test sinovlarini o'tkazish o'quvchi va talabalarining bilimni baholashda ta'lim oluvchi va pedagog orasidagi psixologik omillardan voz kechish, talabalarining bilimni holisona baholashga imkon beradi.

Testologiya inglizcha test — sinov, baholash va grekcha logos — bilim so'zlaridan olingan bo'lib bilim olish sifatini baholovchi, ilmiy asoslangan, fanlararo umumiy ilmiy yo'nalish hisoblanadi.[1] Hozirgi kunda testologiya ta'limning turli yo'nalishlarida va sohalarida qo'llanilmoqda.

Testologiya — shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir.[2]

Zamonaviy testologiya - o'zida test topshiriqlarini yaratishning asosiy tushunchalari va terminlarini, tamoyillarini, shakllarini (tuzilishini), mazmuniga, murakkabligiga qo'yiladigan talablarni, test topshiriqlarini baholash shkalalarini, ya'ni test topshiriqlari bankini yaratish bo'yicha faoliyatni belgilovchi me'yorlarni o'zida jamlaydi.

Metodik test – barcha sinaluvchilar uchun bir xil sharoitlarda o‘tkaziladigan kontrol vazifa (yoki vazifalar) bo‘lib, uning davomliliigi va xarakteri o‘qitishning hamda aynan shu testning umumiy maqsadi, sinaluvchining yoshi, o‘rganilgan mavzu xususiyati kabi obyektiv omillarga qat’iy bog‘liqdir. Uning bajarilish natijalari miqdoriy baholanib, shu test o‘tkazilgan vaqtdagi o‘quv jarayonining ma’lum natijalarini ko‘rsatadi.

Ta’lim sifatini oshirishda testlarning tutgan o‘rni juda katta hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi test sinovi bu talabalarning o‘quv fanlari yoki ta’lim dasturlari bo‘yicha tayyorgarligini holisona baholashning zamonaviy usulidir. Test topshiriqlarini bajarish intellektual faoliyat bo‘lib, chegaralangan vaqt oralig‘ida nazorat ostida amalga oshiriladi. Test sinovlari uchun topshiriqlar ishlab chiqishda zamonaviy testologiya fani nazariyasi va amaliyotiga asoslangan talablarni hisobga olish zarur. Test bu ajratilgan vaqt birligi ichida, barcha uchun bir xil sharoitda tasodifiy savollar ketma ketligini berish orqali bilimlarni baholashning zamonaviy usuli xisoblanadi.

Baholash jarayoni ma’lum bir maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladi. Test topshiriqlari soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa maqsad uchun to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Demak, test – baholash jarayonida qo‘llaniladigan vosita. Bu vosita yordamida bilim va ko‘nikmalar va ularning xususiyati o‘lchanadi, sinaluvchilar bular qay darajada shakllanganligi haqida xulosa chiqariladi[3]. Bu xulosa, biror-bir qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Shakllantiruvchi baholash(o‘rganish uchun baholash) - ta’lim jarayoni davomida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish sifatini baholab borish. Shakllantiruvchi baholash natijasida olingan xulosalar ta’lim jarayonini ta’minlash uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari»da pedagog kadrlarning tayyorlanganligiga qo‘yiladigan talablar, umumiy malaka talablari belgilangan. Jumladan, davlat talablarida ta’lim oluvchilarning bilimlarini holisona nazorat qilish va baholash mahorati bo‘yicha “Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi kerak”ligi belgilangan. Shulardan kelib chiqib, respublikamiz ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun test topshiriqlarini tuzish, test sinovlari natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash usullarini, yondashuvlarini o‘zlashtirish maqsadida testologiyaning nazariy asoslarini takomillashtirish va ta’lim tizimida samarali qo‘llash mexanizmlarini yaratish talab etiladi.

Ta’limning asosiy maqsadi — ta’lim oluvchilarga fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularda ma’naviy, axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, dunyoqarashlarini shakllantirish, kengaytirish va rivojlantirishdan iboratdir. Berilayotgan bilim, hosil qilayotgan ko‘nikma va malakalar qay darajada o‘zlashtirilganini aniqlash va baholash o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi va talabalar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularni aniqlashda esa turli shakl va usullardan foydalaniladi. Jumladan, savol va javoblar, suhbat, yozma ishlar, kollokvium, seminar, sinov, imtihonlar o‘tkazish va boshqalar. Yuqorida qayd qilingan shakl va usullarga nisbatan test topshiriqlari asosida sinovlar o‘tkazish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlashda hamda baholashda ancha qulay va samarali yo‘llardan biri hisoblanadi.

Testlarni qo‘llash metodikasining asoschisi bo‘lib AQSHda faoliyat ko‘rsatgan mashhur amerikalik ruhshunos Djeyms Makkin Kettel hisoblanadi. Uning “Intellektual testlar va ulardan foydalanish” nomli maqolasida diagnostikaning aniq usullari ishlab chiqilgan. Kettel fanga “test” so‘zini kiritdi va bu bilan hozirgi amerika ta’limida an’anaga aylangan o‘quv yurtlariga kirayotganlarni test yordamida tanlash usulini boshlab berdi.

Yevropada testlarning asoschisi sifatida taniqli ingliz olimi Frensis Galton tan olingan. O‘zining “Inson qobiliyatlari va ularning rivojlanishini o‘rganish” asarida u insonning aqliy qobiliyatlari asosan nasldan-naslga o‘tadi, degan fikrni ilgari suradi. U fanga “umumiy qobiliyatlar” (general ability) va “maxsus moyillik” (special aptitudes) degan atamalarni kiritib, ularning birinchisi tabiat tomonidan ato etiladi, ikkinchisi insonning hayoti davomida shakllanadi, deb ta’kidlaydi. Galton o‘z faoliyati davomida insonning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqdi.

Alfred Bine bo'lsa, dunyoda birinchi bo'lib psixologik-pedagogik laboratoriyaga asos solgan. Ushbu kashfiyot jamiyatning zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. XX asrda maktab ta'limi birinchi bor ommaviy hodisaga aylandi. Shu munosabat bilan ta'limning asosiy muammolaridan biri, ya'ni ko'pchilik bolalarning nima uchun yomon o'qishlari, ularga qanday qilib yordam berish mumkin, degan muammo paydo bo'ldi. Ma'lumki, fanlarni o'zlashtira olmaslikning sabablari har xil. Ba'zi bolalarning aqliy layoqatlari yuqori bo'lsa-da, ular yalqovlik yoki boshqa xususiyatlarga ko'ra yomon o'qiydilar, boshqalari aqliy tanqislik sababli oddiy maktabda o'qiy olmaydilar. Lekin qanday qilib bu sabablarni aniqlash mumkin? O'qituvchilarning har bir o'quvchi to'g'risidagi fikrlari har doim qarama-qarshi va subyektiv bo'ladi. Shuning uchun aqliy layoqatlarni xolisona aniqlaydigan usul kerakligi ayon bo'ldi. Bine testlarining paydo bo'lishi ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan.

1904-yilda Parijning maktablar boshqarmasi unga aqli zaif bolalarni sog'lom bolalardan ajratishga yordam beradigan usullarni ishlab chiqish vazifasini topshirgan. Bu aqli zaif bolalarni maxsus maktablarga joylashtirish qarori bilan bog'liq edi. Shunday qilib, 1905-yilda Binening mashhur testlari paydo bo'lgan. Uning tadqiqotlari natijasi – "aqliy qobiliyatlar rivojlanishining o'nlik ko'rsatkichi" (shkalasi)dir. Bine o'zining tadqiqotlari bilan bolaning kelajagini muayyan test ko'rsatkichlari asosida oldindan aytib berish uchun emas, balki ta'lim jarayonidagi nuqsonlarni aniqlash uchun xizmat qilgan. U bolaning aqliy rivojlanishida ijtimoiy-madaniy sharoitning ahamiyati katta ekanligini, testlardan foydalanishda raqamlarga berilib ketmaslik kerakligini ta'kidlagan.

NATIJALAR

Bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qiladigan birinchi testlar XX asr boshida paydo bo'lgan. Ular tezda Angliya va AQSHning oliy o'quv yurtlari va maktablari o'qituvchilari orasida ommalashib ketgan. Taxminan o'sha paytdan ularni AQSHda pedagogik testlar deb atay boshlaganlar. Aynan shu testlar an'anaviy, "sof", testlarsiz pedagogik amaliyot tarafdorlarining qarshiligiga uchragan.

Hozirgi kunda "IQ" deb ataladigan nazariyaning muallifi avstriyalik psixolog Uilyam Shtern bo'lib, u 1911-yilda bolaning xronologik (haqiqiy) yoshidan tashqari aqliy yoshi borligini e'tirof etgan.

Testlardan foydalanish metodikasi qariyb bir asrdan ortiq vaqt davomida rivojlanib va takomillashib keldi. Endi u quruq raqamlardangina iborat bo'lmay, insonning u yoki bu sohadagi bilimlari va tajribasi, mahorati va ko'nikmalari haqida ma'lumot beruvchi tezkor va qulay usulga aylandi. Shu bilan birga bu sohada juda ko'p muammolar borki, ularni hal qilish zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Testlarning yuqoridagi kabi umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, ularning har bir o'quv fani uchun xususiy bo'lgan maqsadlarini belgilab olish zarur. Test bir yoki bir necha vazifalardan tashkil topishi, turkum ko'rinishida tuzilishi, bir kishi uchun yoki ma'lum bir guruh uchun mo'ljallanishi, og'zaki yoki yozma bo'lishi, o'quv yilining ma'lum bosqichlarida, texnik vositalar yordamida va ularsiz o'tkazilishi mumkin.

Oliy ta'limda pedagogik testlarning qaysi turlarini qo'llash mumkin? Bu savolga javob berish uchun testshunoslikdagi mavjud klassifikatsiyalardan foydalanildi. Buning uchun ta'lim jarayonida qo'llanadigan testlarni avval yirikroq bo'limlarga, ularni esa o'z navbatida turlarga ajratish mumkin. Testlarning ushbu bo'limlari va turlaridan qachon va qay tarzda foydalanish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

1. Qo'llanilish maqsadiga ko'ra testlar uch turga bo'linadi:

Tashhis (diagnoz) qo'yuvchi testlar fan o'qituvchisi uchun juda muhimdir. Ular o'quv dasturining eng bo'sh o'zlashtirilgan bo'limlarini aniqlashga yordam beradi hamda yirik bo'limlar o'rganilgandan so'ng o'tkaziladi. Natijada o'quvchi va talabalarning javoblariga qarab, ular qaysi mavzularda xatoliklarga yo'l qo'yganlarini ko'rish mumkin.

Vaziyatni ko'rsatuvchi testlar, avvalgi turlardan farqli ravishda, tez-tez o'tkazilib turadi. Ma'lum mavzu o'rganilayotgan vaqtda talabaning bu mavzuga bo'lgan munosabatini, ya'ni uning qiziqishini, layoqatini va boshqa ko'p jihatlarini aniqlashda bunday sinovlar juda foydalidir. Ayniqsa fanni yaxshi o'zlashtiradigan talabalarning javoblari muhim hisoblanadi. Chunki ulardan namuna sifatida foydalanish mumkin. Bunday testlar yordamida o'qituvchi o'quvchi va talabalarda ma'lum ko'nikmalar va qobiliyatlarning qay darajada rivojlanishini yaqqol ko'radi.

2. Tuzilishiga ko'ra testlarning ikki turi ma'lum:

2.1. Oddiy (bir shakldagi topshiriqlardan iborat) testlar keng qo'llanadi, chunki ularda bir turdagi vazifalar, masalan, tanlash yoki berilgan tasdiqlarni o'zgartirishdan iborat topshiriqlar

beriladi. Bunday testlarning natijalarini qayta ishlash qulay. Ayniqsa, testlar bilan ilk bor tanishayotganlar uchun shu turdagi testlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

2.2. Murakkab testlar turli shakldagi topshiriqlardan tashkil topishi mumkin.

3. Testlar qo'llanilish davriyligiga ko'ra uch xil bo'ladi:

3.1. Kundalik testlar har bir mashg'ulotda ma'lum bir mavzuni yoki dasturning muayyan bo'limini o'rganish jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Ular mashqlar ko'rinishida bo'lib, talabani bilimni tekshirish bilan birga, unda qaysidir ko'nikmalarni hosil qiladi. Lekin bunday testlarning natijalari har gal turlicha bo'lishi mumkin, chunki ular fragmentlar xarakterga ega.

3.2. Davriy testlar o'quv jarayonining ma'lum bosqichlarida o'tkaziladi va odatda bir mavzu yoki bir bo'lim ustida ish yakunlangan vaqtda, yohud o'quv bloki intihosida qo'llanadi. Boshqachasiga ularni turkumli testlar deb atasa ham bo'ladi, chunki ular asosan mavzular turkumini qamrab oladi. Bu testlar talabalarning ushbu turkumni qay darajada o'zlashtirganliklarini qo'rsatib, o'qituvchiga nimalarga ko'proq ahamiyat berish kerakligini, qaysi mavzularni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Bunday testlar boshqa testlardan ko'ra talabalarning bilimni aniqroq baholashga imkon beradi.

3.3. Yakuniy testlar odatda semestr yoki blok oxirida, o'quv dasturi yakunlanganda, ya'ni imtihonlar jarayonida qo'llanadi. Ular asosan talabalarning bilimni baholashga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayoniga yakun yasaydi. Tarkibiga ko'ra esa, kundalik testlar qisqa va bir turdagi topshiriqlardan, davriy testlar katta bo'limni o'z ichiga olgan murakkabroq ko'rinishdagi savol va vazifalardan, yakuniy testlar esa har xil turdagi bir necha maqsadli topshiriqlardan iborat bo'ladi.

4. Sinov xususiyati bo'yicha testlar ikki xil bo'ladi:

4.1. Individual testlar avval paydo bo'lgan. Mashhur ingliz ruhshunosi Gans Ayzenk yaratgan shaxsga mo'ljallangan test bunga misol bo'la oladi. U insonning bir qator xususiyatlarini aniqlab beradi. Ta'lim jarayonida individual testlar har bir o'quvchi yoki talabani alohida-alohida sinovdan o'tkazish uchun qo'llanadi. Ular o'quvchi yoki talabalarning bilim darajalarini taqqoslash zaruriyati bo'lmaganda, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida qo'llanadi. Bunday testlardan ta'lim jarayonida deyarli foydalanilmaydi.

4.2 Muayyan guruhga mo'ljallangan testlar o'quv auditoriyasida o'tkaziladigan testlarning asosiy turidir. Ular ma'lum guruh talabalari, ya'ni bir xil yoshdagi sinalayotganlar uchun muayyan fandan tuziladi va bir xil sharoitda, bir vaqtda o'tkaziladi. Ularning afzalligi shundaki, bunday testlar vaqtni tejaydi, natijalarni qayta ishlash ham juda qulay.

5. Vazifasiga ko'ra testlarning ikki turi ma'lum:

5.1. Bilimlarni aniqlaydigan testlar, asosan, nazariyaning qay darajada o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Ularning asosiy xususiyati bunday testlarda aniq javoblar berilishi talab qilinishidir. Bilimlarni asosan davriy testlar yordamida aniqlash mumkin.

5.2. Malaka va ko'nikmalarni aniqlaydigan testlar mashq ko'rinishidagi topshiriqlardan iborat bo'ladi. Bu testlarni bajarayotgan talaba ushbu mavzuni o'rganganda o'zida qanday malakalar hosil bo'lganini namoyish qiladi. Malaka va ko'nikmalarni kundalik va turkumli testlar yordamida aniqlash mumkin.

6. Bajarilish usuliga ko'ra testlar uch xil bo'ladi:

6.1. Og'zaki ravishda bajariladigan testlar qog'oz ishtirokisiz o'tkaziladi. Ularni audio-texnik vositalarga yozish maqsadga muvofiq. Ayrim hollarda bunday testlar yagona nazorat usuli bo'lib, og'zaki nutqni egallash ko'nikmalarini tabiiyga yaqinlashtirilgan sharoitlarda aniqlaydi. Bundan tashqari, og'zaki testlarda topshiriq shartini doskaga yoki kartochkaga yozish, shuningdek, teletestlardan ham foydalanish mumkin. Javoblar og'zaki ravishda beriladi.

6.2. Yozma ravishda bajariladigan testlar qulayligi va tejamkorligi, ularga kerakli shart-sharoitlarning deyarli har doim mavjudligi tufayli keng tarqalgan. Test topshiriqlari yozma ravishda berilib, javoblar "to'g'ri - noto'g'ri", "+" va "-" tarzdagi muqobil (alternativ) ko'rinishda yoki to'g'ri javobga "+" belgisini qo'yish tarzida, yozma ravishda beriladi. "To'ldiring" tarzidagi topshiriqlarda sinalayotganlar bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirishadi yoki butun javobni yozishadi. Hozirgi vaqtda qo'llanayotgan testlarda tanlangan javob raqamini doiracha bilan belgilash keng tarqalgan. Yozma bajariladigan testlarning natijalarini tekshirish qulay va oz vaqt talab qiladi.

6.3. Kompyuter yordamida bajariladigan testlar ta'lim beruvchi dasturlar asosida amalga oshiriladi. Bunday dasturlar ikki rejimda ishlaydi: repetitorlik (ta'lim beruvchi) va imtihon oluvchi (nazorat qiluvchi) dasturlar. Hozirgi vaqtda testlarni kompyuterlarda bajarish eng tezkor usul bo'lib hisoblanadi.

MUHOKAMA

Kuzatishlar natijasida tanlash usulidagi testlarning bir qator afzalliklari ma'lum bo'ldi:

- ularda variantlarning bir nechta bo'lishi tanlash jarayoniga, demak, fikrlashga olib keladi. Bu esa talabalarning bilimni aniqroq baholashga yordam beradi;
- bu shaklni deyarli barcha fanlar va barcha mavzularda qo'llash mumkin;
- tanlangan variant bir xil usulda: yozma testlarda doiracha shaklida, kompyuterdagi testlarda strelkani harakatlantirish yo'li bilan belgilanadi;
- ushbu shaklni yozma testlarda ham (shablon qo'yib), kompyuterda bajariladigan testlarda ham baholash qulay;
- bu shaklni qo'llaganda ma'lum bir vaqtni belgilab qo'yish imkoniyati bor.

Fikrimizcha, yuqorida aytilgan jihatlarning barchasi tanlash usulining eng qulay shakl ekanligidan dalolat beradi. Testning mezonlari unga bo'lgan talablardan kelib chiqadi. Test talablari quyidagilardir:

- testning shartlari, topshiriq va savollari oson o'qilishi kerak, chunki uzundan-uzoq, mujmal va murakkab iboralar talabaniq diqqatini chalg'itadi;
- ta'lim beruvchi testlarda darslikdagi ta'rif va qoidalar berilmasligi lozim, chunki bu testning ob'yektivlik xususiyatiga putur yetkazishi mumkin;

Ushbu talablardan testning mezonlari kelib chiqadi. Bu mavzu tilga olingan bir qator tadqiqotlarda asosan ikkita mezon ko'rsatiladi: ishonchlilik va maqsadga muvofiqlik. Bulardan tashqari, testning tejamlilik, holislik, uning o'tkazilishi uchun imkoniyat yaratilishi, hisoblashga qulaylik, etalonlar kabi mezonlari ham bor. Ular nimani anglatadi?

Test bitta yoki har xil guruhlarda o'tkazilganda eng kam o'zgarishlar (xatoliklar) bilan bir xil natijalarni ko'rsatishi kerak. Testning ishonchliligi tashqi mezonlarning yordamisiz aniqlanishi mumkin. U bir guruhda qayta-qayta bir testni o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

Agar test qayta qo'llanganda o'xshash natijalarni ko'rsatsa, bu test ishonchli bo'ladi. Bu usulning kamchiligi shundaki, test qayta qo'llanganda talaba savol va javoblarni xotirasida saqlab qolishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun odatda bir testning parallel variatlari ishlatiladi. Ularni tuzishda topshiriqlarning qiyinlik darajasi bir xilligigina emas, har bir topshiriq bilan butun test orasidagi munosabat ko'rsatkichi ham e'tiborga olinadi.

Maqsadga muvofiqlik deganda, test qanday maqsadni ko'zlab o'tkazilsa, aynan shu maqsadga erishishga yordam berishi kerakligi nazarda tutiladi. Bu testning umumiy emas, xususiy sifatidir. Boshqa maqsadlarda shu testdan foydalanilsa, u yaroqsiz bo'lib qoladi. Maqsadga muvofiqlikning o'lchovi test ko'rsatkichlari va sinalayotganlarda tekshiriladigan layoqat va xususiyatlarning boshqa ob'yektiv bahosi orasidagi munosabatda aks etadi. Ushbu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, testning yaroqliligi ham shunchalik yaroqli bo'ladi.

Ta'lim beruvchi testlarni qo'llaganda talabalar ma'lum bir o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Bu yerda muhimi – test ushbu o'quv dasturining mazmunini qay darajada to'liq va atroflicha aks ettirishini aniqlashdir. Mazmun deganda faqatgina bilimlarni emas, balki talabaniq muayyan fan asoslarini va qonuniyatlarini qanchalik tushunishi va shu bilimlarni nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda qo'llay olishini nazarda tutish kerak. Testning shu mazmunga mos kelishi uni ma'lum fan dasturi, darslik mazmuni, ba'zida esa mutaxassislar tomonidan fanning vazifalariga qarab beriladigan ta'riflar bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Bu testning mazmunan maqsadga muvofiqligidir. Shuni yodda tutish kerakki, testning mazmuni ma'lum guruhdagi sinalayotganlar uchun mos bo'lishi kerak.

Hisoblashga qulaylik. Agar testning natijalarini hisoblash yoki qayta ishlash oson bo'lsa, demak, test ushbu mezonga javob beradi. Subyektiv va individual testlarning natijalarini hisoblash oson emas. Imtihon oluvchi qaysi javob yaxshiroq, to'liqroq, to'g'riroq ekanini o'ylaydi, shubhalanadi, qiynaladi. Obyektiv va guruhlarga uchun mo'ljallangan testlar bunday kamchiliklardan xoli. Lekin ular ham hisoblashga qulaylik jihatidan turlicha bo'ladi. Masalan, javoblari bir varaqqa yozilgan test natijalarini javoblari har xil varaqalarga yozilgan test natijalariga nisbatan hisoblash oson, chunki birinchi testning natijalari javob varaqasiga: a) shablonni qo'yib; b) kompyuter yordamida; v) perfokartalar vositasida hisoblanishi mumkin. Ikkinchi test natijalarini esa bunday hisoblab bo'lmaydi. Bu muhim mezon hisoblashning aniqligiga va hisoblash uchun kerakli bo'lgan vaqtga ta'sirini o'tkazadi.

Etalonlar. Etalonlar raqamlarda ifodalanadi. Ular talabalarning oldindan belgilangan tarkibi bilan o'tkazilgan test natijalari, ya'ni testni "standartlashtirish" jarayonida olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Bu ko'rsatkichlar testlarni amaliy qo'llashda katta rol o'ynaydi. Standartlashtirilmagan

test ayrim talabalarning qandaydir guruh chegarasidagina bilim darajalarini taqqoslashi mumkin. Etalon ko'rsatkichlari bizga testlar yordamida bilim darajasini faqatgina bir o'quv guruhi yoki bir o'quv yurti chegarasida emas, ancha keng ko'lamda taqqoslash imkonini beradi.

Testning tejamlliligi uning qancha vaqt davomida o'tkazilishi bilan aniqlanadi. Uni bajarishga, natijalarni qayta ishlashga va testni bajargan talabalarga e'lon qilishga qancha oz vaqt ketsa, test shuncha tejamli bo'lib hisoblanadi.

Testning holisonaligi o'qituvchi yoki tadqiqotchi, yohud boshqalarning testni bajarish hamda uning natijalarini hisoblash jarayoniga aralashmasligi bilan ta'minlanadi.

Test o'tkazish uchun imkoniyatlarning yaratilishi uni o'tkazadigan mutaxassisga bog'liq. Bu imkoniyatlar esa tashqi va ichki shart-sharoitlardan kelib chiqadi.

Hisoblashga qulaylilik o'qituvchi baholashning qaysi usulini qo'llashiga bog'liq.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, testlar zamonaviy ta'limdagi ko'plab pedagogik yangiliklarning ajralmas qismiga aylangan. Tabiiyki, ulardan faqat ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil qilingandagina foydalanish mumkin. Yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarda bu usulning ommalashganligi uning samara berayotganligini ko'rsatadi. Testlar sinalayotganlarning bilim, malaka va ko'nikmalari darajasini holisona baholaydi hamda o'qitishdan olingan natijalarni ko'rsatadi. Test savollari va topshiriqlarini tuzish ulardan darhol foydalanish mumkinligini anglatmaydi. Har bir savolning qanchalik to'g'ri tuzilganligi va uning ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qay darajada hissa qo'shishi faqat tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Shuning uchun o'qituvchi tuzilgan savollarni kichik guruhlarda sinovdan o'tkazish hamda ularning test mezonlari va talablarga qay darajada javob berishini aniqlashi kerak.

Ta'lim beruvchi testlarni qo'llaganda talabalar ma'lum bir o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Bu yerda muhimi – test ushbu o'quv dasturining mazmunini qay darajada to'liq va atroflicha aks ettirishini aniqlashdir. Mazmun deganda faqatgina bilimlarni emas, balki talabaning muayyan fan asoslarini va qonuniyatlarini qanchalik tushunishi va shu bilimlarni nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda qo'llay olishini nazarda tutish kerak. Testning shu mazmunga mos kelishi uni ma'lum fan dasturi, darslik mazmuni, ba'zida esa mutaxassislar tomonidan fanning vazifalariga qarab beriladigan ta'riflar bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent.: Akademnashr, 2020. –B.5.
2. Lord F. Novick M. Statistical theories of mental test Scores. –Reading. MA: Addison-Wesley Pub. 1968. –P. 17.
3. Lord F. Novick M. Statistical theories of mental test Scores. –Reading. MA: Addison-Wesley Pub. 1968. –P. 16.
4. Meyerhöfer W. Tests im Test-Das Beispiel PISA. Barbara Budrich // Opladen, 2005. – p. 89.
5. Huisken F. Der "PISA-Schock" und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? //VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 12.
6. Saydullayeva, A. R. (2023). STRUCTURE AND COMPONENTS OF GENDER CULTURE DEVELOPMENT IN STUDENTS. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 2(5), 53-59.
7. Huisken F. Der "PISA-Schock" und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? //VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 23-24.